

## **TALABALARDA MUSIQIY DID VA JAMOAVIY IJOD KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ANSAMBL TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.**

**Nuraliyev Yaxshiboy.**

*Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada ansambl ijrochiligining o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'rni, talabalarni musiqiy savodxonlik, ijro mahorati va jamoaviy ijodga yo'naltirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Ansambl faoliyati orqali milliy qadriyatlarni saqlash, estetik tarbiya va ijodiy salohiyatni rivojlantirish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so 'zlar:** Ansambl, ijrochilik, tarbiya, musiqiy savod, ijod, jamoa, intizom, meros, qadriyat, o'sish, hamkorlik, madaniyat.

Barcha musiqa san'ati turlari kabi ansambl ijrochiligi ham jonli jarayon bo'lib talabalardan yuksam intizomni talab etadi. Ansambl ishtirokchilarining musiqiy qobiliyati, qiziqishi va xohishi inobatga olingan holda guruhlarga ajratish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda cholg'u asboblarini chalishga moyillik bildirgan o'quvchilarni bir guruhga, qo'shiq kuylaydigan yoki raqsni ijro etishga xohishi bor havaskor o'quvchilar esa alohida-alohida guruhlarga ajratiladi. Laparlarni kuylay oladigan, shuningdek, yakkanavoz, ya'ni cholg'u asbobini chalib qo'shiq ayta oladigan o'quvchilar ham inobatga olinadi. Ansambl faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi istiqbol rejasini tuzishda quyidagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- ansambl (dasta) qatnashchilari yig'inini tayyorlash va o'tkazish (bu yig'inda ansambl faollarini saylash va ishga taalluqli umumiyoq qoidalarni kelishib olish, shuningdek, yillik ish rejani muhokama qilish);
- ansambl qatnashchilari sonini to'ldirib borish (ya'ni e'lonlar va turli suhbatlar orqali xohlovchilarni mashhg'ulotlarga jalb qilish);

- musiqa asboblari, kiyim-kechaklar va boshqa zarur o‘quv qurollarini olish;
- ishtirokchi-o‘quvchilarning musiqiy ijrochilik mahoratlarini muntazam oshirib borish, texnik malakalarini esa takomillashtirish;
- umumiy guruhlarga va yakka (individual) ijrochilar bilan alohida mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida o‘tkazish va musiqa ijrochiligi (cholg‘u asbobida chalish, qo‘sish qaylash, raqsga tushish) sifatini muntazam yaxshilab borish;
- ansambl dasturi uchun tanlangan musiqa asarlari o‘z mazmuni va tuzilishi jihatidan a’zolarga tushunarli va yoshlariga mos bo‘lishini hamda ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talabi asosida olib borishni inobatga olish.

Tanlangan musiqa asarlari ijrosi orqali o‘quvchilarni ijodiy mehnat qilishga o‘rgatish, ma’naviy dunyosini boyitish, badiiy kamolotga erishuviga hamda nafosat didini o‘stirishga xizmat qilmog‘ligini e’tiborga olish lozim.<sup>1</sup>

Tarbiya jarayonining yana bir muxim tomoni shundaki, talabalar imkoniyatiga mos, hamda ruhiyatiga xos ijsro dasturini tanlashdir. So’ ngra tanlangan asarni sozandalarga o‘rgata borishda talabalarning darsga qatnashishi jarayonini muntazam ravishda kuzatib borish umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida gavdalanadi. Ansamblida ta’lim olish bolalarga musiqiy savodxonlikni oshirish va ijsro texnikasini mukammal egallashga, ijodiy salohiyatini oshirishga intizomli bo‘lib, ijodiy mehnat va o ‘z ustida ishslash madaniyatini shakllamtirishga yordam berdi. Bu esa ularning kelajakda professional san‘atkor bo‘lishiga zamin yaratadi. Yana bolalar ansamblida jamoa bilan ishslash va birgalikda ijod qilish tajribasini qo‘lga kiritibgina qolmay , musiqachilar o’rtasida hamkorlik qilish va o‘zaro hurmatga ham sazovar bo‘ladi. Bolalar o‘z xalqining musiqa va madaniy merosiga yaqinlashib, milliy qadriyatlarni o’rganib, bu merosni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish mas‘uliyatini his qilishadi. Xulosa qilib aytganda, ansambl

---

<sup>1</sup> MUSIQA TO‘GARAGINI TASHKIL ETISH USULLARI Ro’ziyev Ubayd, Urunova Mohiruxsor, CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION.

bolalar uchun nafaqat musiqa o'rgatish maktabi balki ularning madaniy va ma'nnaviy tarbiyasida ham muhim o'rinni tutgan bo'lib, milliy merosni davom ettiruvchi yosh avlodni shakllantirishga yordam beradi.

Ijodkorlik sohasidagi zamonaviy nazariyalar uning ijtimoiy va moddiy muhiti ijodiy faoliyatga asoslangan, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tuzilma asosan musiqiy bilimlar paradigmafiga va ansamblni muvofiqlashtirishda dinamik tizimli qarashlarga mos keladi. Ushbu qarashlar ansambl ijrochiligi konsepsiyasini mujassamlashtiruvchi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish bilan bog'lanadi hamda musiqiy ijodiy hamkorlikning asosiy mexanizmlarini aniqlashda erishilgan yutuqlar baholanadi. Ijrochining ijodiy musiqiy mahsulotlarini muvofiqlashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan ijodkorlarning moslashuvchanligi va muloqot shakllarini targ'ib qilishda musiqiy tasavvurning muvofiqlashuvi muhim o'rinni tutadi. Keyinchalik, paydo bo'lgan va ansambl ish faoliyatining eng yuqori nuqtasini ifodalovchi konstruksiyalar hisobga olinadi va ansamblning tarkibi yoki ijro dasturini shakllantiruvchi muayyan shartlar aniqlanadi. Talabalar mustaqil mashg 'ulotlar olib borish jarayonlarida anashunday muayyan belgilangan shartlarni bajarish bilan o 'zlarida to 'g 'ri rivojlanishga erisha oladilar.

Ansamblda ta'lim olish talabalarga musiqiy savodxonlikni oshirish va ijro texnikasini mukammal egallashga, ijodiy salohiyatini oshirishga intizomli bo'lib, ijodiy mehnat va o'z ustida ishslash madaniyatini shakllamtirishga yordam berdi. Bu esa ularning kelajakda professional san'atkor bo'lishiga zamin yaratadi. Yana bolalar ansamblda jamoa bilan ishslash va birgalikda ijod qilish tajribasini qo'lga kiritibgina qolmay , musiqachilar o'rtasida hamkorlik qilish va o'zaro hurmatga ham sazovar bo'ladi. Talabalar o'z xalqining musiqa va madaniy merosiga yaqinlashib, milliy qadriyatlarni o'rganib, bu merosni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish mas'uliyatini his qilishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ansambl sinfi S Begmatov, N Qodirov O'quv qo 'llanma Toshkent 2008 yil

2. S.N. Gulov Xalq cholg'ularida ijrochilik o'quv qo'llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2021y
3. Ikromov I. «Xalq cholg'ularida ijrochilik (doira)» darslik, Toshkent, 2022-y
4. **QONUN CHOLG'USINING KELIB CHIQISH TARIXI VA QONUN CHOLG'USI IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN TAVSIYALAR.**  
MMQ Quvondiqova, MG Akbarova - Oriental Art and Culture, 2022